

**MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH: TERGOV
JARAYONINING HUQUQIY ASOSLARI VA DOLZARB MASALALAR**

Usmonov Najmiddin Qo'shboq o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

"Tergov faoliyati" kafedrası o'qituvchisi

Xudoyberganov Sardor Sherimbetovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-bosqich 323-guruh kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15536546>**Annotatsiya**

Mazkur maqolada mehnatni muhofaza qilish jinoyatining mohiyati va mazmuni, uning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, ushbu turdagi jinoyatlarni tergov qilishda uchraydigan muammo va kamchiliklar keng ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bugungi kundagi mehnatni muhofaza qilish jinoyatlarining statistikasi va ularning yechimiga qaratilgan takliflar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar

Mehnatni muhofaza qilish, mehnatda mayib bo'lish, shaxsiy himoya vositalari, baxtsiz hodisa, ishlab chiqarish omili, xavfsiz ishlash huquqi.

Mehnatni muhofaza qilish– inson hayoti va sog'lig'ini ishlab chiqarish jarayonida himoya qilish, xavfsiz sharoitlarni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi. Ishlab chiqarishdagi xavfsizlik talablariga rioya qilmaslik oqibatida yuzaga keladigan jinoyatlar jamiyat uchun og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ushbu maqola ushbu jinoyatlarni tergov qilishning huquqiy asoslari va dolzarb masalalarini o'rganishga bag'ishlanadi¹.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida mehnatni muhofaza qilish bilan bog'liq jinoyatlarni oldini olish va ularga qarshi kurashish bir qator normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi. Bularga quyidagilar kiradi:

– O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (42-46-moddalar): Har bir fuqaro xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlarida ishlash huquqiga ega.

– "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida" qonun: Ushbu qonun xavfsiz ish sharoitlarini yaratish bo'yicha ish beruvchilarning majburiyatlarini belgilaydi.

– Mehnat kodeksi: Ishchilarning huquq va majburiyatlarini tartibga soluvchi asosiy hujjat sifatida ishlab chiqarishdagi xavfsizlikni ta'minlashni talab qiladi.

– Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (23-24-moddalar): Har bir inson xavfsiz va odil mehnat sharoitlariga ega bo'lish huquqiga ega².

Mehnatni muhofaza qilish– mehnat jarayonida insonning xavfsizligini, hayoti va sog'lig'i, ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga doir huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika, rehabilitatsiya tadbirlari hamda vositalari tizimi;

Mehnatda mayib bo'lish– ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa oqibatida xodimning kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turg'un yo'qotishi;

¹ B.B.Murodov. Xususiy ayblov institutini qo'llash samaradorligini oshirish yo'llari // Xususiy ayblov va yarashuv institutlarini takomillashtirish choralari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. T:O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015y.B. 34-40.

² B.B.Murodov. "Jinoyatlarni tergov qilish metodikasi" fanidan o'quv dasturi. T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. B.24

Shaxsiy himoya vositalari– xodimga zararli ishlab chiqarish omili va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omili ta’sirining oldini olish yoki uni kamaytirish, shuningdek ifloslanishlardan himoyalaniş uchun foydalaniladigan texnik vositalar va boshqa vositalar.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa–xodimning ish beruvchining hududida ham, uning tashqarisida ham o’z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog’liq holda, shu jumladan ish beruvchi tomonidan berilgan transportda ish joyiga kelayotgan yoki ishdan qaytayotgan vaqtda mehnatda mayib bo’lishiga yoki sog’lig’ining boshqacha tarzda shikastlanishiga olib kelgan va xodimni boshqa ishga o’tkazish zaruratiga, u kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turg’un yo’qotishiga yoxud vafot etishiga sabab bo’lgan hodisa;

Zararli ishlab chiqarish omili– ta’siri xodimning kasb kasalligiga chalinishiga olib kelishi mumkin bo’lgan ishlab chiqarish omili;

Ishchilarning xavfsiz ishlash huquqi– ishchi har doim xavfsiz sharoitda ishlashni, o’z sog’lig’i va hayotini xavf ostiga qo’ymasdan mehnat qilishni talab qilish huquqiga ega.

Mehnatni muxofaza qilish jinoyati– bu mehnat qonunlariga, xususan, ishchilarni himoya qilishga oid huquqiy me’yorlarning buzilishi bilan bog’liq jinoyatdir. O’zbekiston Respublikasida mehnat huquqini buzish, ishchilarni xavfsiz sharoitda ishlashini ta’minlashga qaratilgan talablarning amalga oshirilmasi jinoyat sifatida baholanishi mumkin³.

1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjaxon deklaratsiyasida,shuningdek boshqa bir qator xalqaro xuquqiy hujjatlar xamda mamlakatimiz milliy qonunchilik normalarida xar kim mexnat qilish,erkin kasb tanlash ,adolatli mexnat sharoitlarida ishlash va ishsizlikdan himoyalaniş huquqiga ega deb mustahkamlangan.Inson huquqlarini taqiqllovchi xatti-xarakatlar,shu jumladan fuqarolarni majburiy mexnatga jalb qilish xalqaro hamjamiyat tomonidan qabix ishlar qatorida etirof etilib,ularni taqiqlashga oid bir qancha jora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.Bu borada xalqaro xamkorlikning ifodasi sifatida bir qator xalqaro hujjatlar qabul qilindi.Shular orasida quyidagi eng nufuzli va universal xalqaro hujjatlarni keltirish joiz⁴.

Mehnatni muxofaza qilish, avvalo, ishchining hayoti va sog’lig’ini himoya qilishga qaratilgan.

1. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 23-24 moddalari "
2. "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to’g’risida Xalqaro Pakt 6-8 moddalari"
3. "O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 42-46 moddalari"
4. "O’zbekiston Respublikasi Mexnat kodeksi"
5. "Mexnatni muhofaza qilish to’g’risida" qonun

Bundan tashqari mehnat sharoitlarini yaxshilash, ish joylarida xavf-xatarni kamaytirish va ishchilarni zararli ish sharoitlaridan himoya qilishga oid bir qator normativ hujjatlar mavjud. Mexnatni muxofaza qilish qoidalarining buzilishi ushbu normalarga zarar etkazadi. Mexnatni muxofaza qilish qoidalarini buzish quyidagi shakllarda namoyon bo’lishi mumkin:

Xavfsiz mehnat sharoitlarining taminlanmasligi– agar ish joyida ishchining hayotiva sogligiga tahdid soluvchi sharoitlar mavjud bo’lsa (masalan, to’liq sanitariya-gigiena talablariga

³ Sh.Sh.Suyunov. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning muhim jihatlar. "Talqin va tadqiqotlar" Respublika ilmiy-uslubiy jurnali 10soni. 01.10.2022 yil B. 105-109.

⁴ A.T.Ashirboev. Jinoyat ishini to’xtatish tushunchasi va ahamiyati. Eksmertkriminalistik faoliyat: istiqbollar va innovatsiyalar mavzusidagi xalqaro konferensiya materillari to’plami. T., O’zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, 2023. – B. 381-388.

javob bermaydigan sharoitlar, xavfli ish uskunalar, yomon havo o'zgarishi), bu mehnatni muxofaza qilishga nisbatan jinoyat hisoblanadi⁵.

Ishchilarni xavf-xatar bilan bog'liq ishlar uchun zaruriy himoya vositalarsiz ishlashga majburlash– masalan, ishchilarni xavfli kimyoviy moddalar bilan ishlashda zaruriy himoya vositalarisiz ishga jalb etish⁶.

Ishchilarni notog'ri ishlash sharoitlari bilan taminlash– ishchi normal ishlash sharoitlariga ega bo'lmasligi, masalan, juda baland yoki past haroratda ishlashga majburlash ham mehnatni muxofaza qilish qonunlarini buzish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida Mehnatni muxofaza qilish jinoyatlariga qarshi kurash. O'zbekistonda mehnatni muxofaza qilish qonunlarini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan. Mehnatni muxofaza qilishga oid jinoyatlar O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi va Mehnat kodeksida ko'rsatilgan me'yorlarga asoslanadi. Bu qonunlar mehnatni muxofaza qilishni ta'minlash uchun davlat tomonidan amalga oshiriladigan nazoratni, shuningdek, ish beruvchilar va ishchilar o'rtasidagi huquqiy aloqalarni tartibga soladi⁷.

Mehnatni muxofaza qilishga doir qonunlarni buzganlik uchun javobgarlik quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

1. Ma'muriy javobgarlik– Ish beruvchilar mehnatni muxofaza qilishga doir talablarni buzishsa, ma'muriy jarimalarga tortilishi mumkin.

2. Jinoyat javobgarligi– Agar mehnat sharoitlari sababli ishchining sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazilsa (masalan, jarohat olish, kasallik), ish beruvchi jinoyat javobgarligiga tortilishi mumkin.

3. Fuqarolik javobgarligi– Mehnatni muxofaza qilish talablari buzilgan taqdirda, ishchi zarar ko'rgan bo'lsa, ish beruvchi fuqarolik javobgarligini o'z zimmaga oladi.

Mehnatni muxofaza qilish jinoyatlari, mehnat sharoitlarining etarlicha xavfsiz emasligi va ishchilarga nisbatan diskriminatsion yoki xavfli sharoitlar yaratish bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Bu kabi jinoyatlar nafaqat mehnat huquqining buzilishi, balki inson huquqlarining ham poymol qilinishiga olib keladi. Shuning uchun, mehnat qonunlariga rioya etilishi zarur, ishchilarning xavfsiz ishlash huquqi ta'minlanishi va mehnat muhofazasi sohasida jiddiy monitoring olib borilishi kerak. Bu mavzu bo'yicha aniq qonuniy normalarni va holatlarni o'rganish, mehnat muhofazasi bo'yicha maxsus mutaxassislar bilan maslahatlashish foydali bo'ladi⁸.

References:

Используемая литература:

⁵ Sh.Sh.Suyunov. Kompyuter texnika vositalari orqali sodir etilgan firibgarlik jinoyati turlari. “Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya” nomli Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 9.06.2023 yil

⁶ A.Y.Abdullaev. Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatining sabablari va uni sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar (Xorazm viloyati misolida). Yevraziyskiy jurnal prava, finansov i prikladnykh. 2023 g.

⁷ Sh.Sh.Suyunov. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov xarakatining jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash xamda ularning aybini isbotlashdagi axamiyati. “Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya” nomli Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.

⁸ N.A. Xushvaktova. Prospects for the use of public opportunities in pre-trial proceedings // World Bulletin of Management and Law (WBML) Available Online at: <https://www.scholarexpress.net> Volume-36, July -2024 ISSN: 2749-3601 Impact Faktor:10.25 SJIF:7.8 B. 8-11.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 25.01.2020 yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // [Elektron manba].
3. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. –T., 2009. – B. 199.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.4. –T., 2002. – B. 47.
5. B.B.Murodov. Jinoyat-protsessual qonun normalarini erkinlashtirish yo'llari // Oliy yuridik o'quv yurtlarida inson huquqlari muhofazasini ta'minlovchi fanlarning o'qitishning zamonaviy muammolari. Toshkent. O'zbekiston Milliy universiteti huquqshunoslik fakulteti 2009. B. 66-69.
6. B.B.Murodov. Jinoyat-protsessual munosabatlarda himoyachining ishtiroki // "Advokatlik faoliyati: nazariya va amaliyot masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. O'zR Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti. – Toshkent, 2010. B. 171-175.
7. B.B.Murodov. Xususiy ayblov institutini qo'llash samaradorligini oshirish yo'llari // Xususiy ayblov va yarashuv institutlarini takomillashtirish choralari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. T:O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015y.B. 34-40.
8. B.B.Murodov. "Jinoyatlarni tergov qilish metodikasi" fanidan o'quv dasturi. T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. B.24
9. B.B.Murodov. Predvaritelnoe sledstvie v organax vnutrennix del. Uchebnik. T.: Akademiya MVD Respubliki Uzbekistan, 2014. 395 B.
10. Sh.Sh.Suyunov. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning muhim jihatlari. "Talqin va tadqiqotlar" Respublika ilmiy-uslubiy jurnali 10soni. 01.10.2022 yil B. 105-109.
11. Sh.Sh.Suyunov. Kompyuter texnika vositalari orqali sodir etilgan firibgarlik jinoyati turlari. "Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya" nomli Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 9.06.2023 yil
12. Sh.Sh.Suyunov. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov xarakatining jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash xamda ularning aybini isbotlashdagi ahamiyati. "Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya" nomli Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.
13. Sh.Sh.Suyunov. Some aspects of qualifying drug-related crimes. Koreya Respublikasining "Digital Fashion Conference" jurnali 5.10.2022 y B. 13-15
14. A.T.Ashirboev. Ayblanuvchining qarda ekanligi noma'lum bo'lgan hollarda jinoyat ishini to'xtatishning nazariy va amaliy jihatlari. Jamiyat va innovatsiyalar № 1 (2024).– 2024. – 314-320 b.
15. A.T.Ashirboev. Jinoyat ishini to'xtatish tushunchasi va ahamiyati. Eksmertkriminalistik faoliyat: istiqbollar va innovatsiyalar mavzusidagi xalqaro konferensiya materillari to'plami. T., O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, 2023. – B. 381-388.
16. A.T.Ashirboev. Ayblanuvchining ishtirokini ta'minlash imkoni bo'lmagan taqdirda dastlabki tergovni to'xtatish: Nazariya va amaliyot. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining Axborotnomasi № 1 (2024).– 2024. 95-98 b.
17. A.Y.Abdullaev. Guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berishi jinoyatlarini sodir etish izlarining yuzaga kelish mexanizmlarining o'ziga xos jihatlari. Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali. 2023 yil.

18. A.Y.Abdullaev. Guvohning bila turib yolg'on ko'rsatuv berishi sabablari. Yevraziyskiy jurnal prava, finansov i prikladnykh. 2023 g.
19. A.Y.Abdullaev. Guvoh va jabrlanuvchini so'roq qilishning taktik jihatlari. Yevraziyskiy jurnal prava, finansov i prikladnykh. 2022 g.
20. A.Y.Abdullaev. Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatining sabablari va uni sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar (Xorazm viloyati misolida). Yevraziyskiy jurnal prava, finansov i prikladnykh. 2023 g.